

Qadrdon maktabim

Qancha?, nechta?, nechanchi? so'roqlari, -inchi, -nchi qo'shimchalari



lug'at



Sonlar narsalarning miqdori, sanog'i yoki tartibini bildirib, **qancha?, nechta?, nechanchi?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Masalan: *nechanchi dars? – to'rtinchi dars.*

Sanoq sonlarga **-inchi, -nchi** qo'shimchalarini qo'shish bilan tartib son hosil qilinadi: **yigirma – yigirmanchi, sakkiz – sakkizinchi.**

Tartib sonlar arab raqami bilan yozilganda **-inchi, -nchi** qo'shimchalari o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi.

Masalan: *to'qqizinchi dekabr – 9-dekabr, qirqinchi xona – 40-xona.*

Sonlar raqam bilan ifodalanganda ikki xil yoziladi:

1. Arab raqami bilan: 2026-yil, 1-sentabr.
2. Rim raqami bilan: IV sinf, XXI asr.

Tartib sonlar rim raqami bilan yozilganda chiziqcha qo'yilmaydi.



1-topshiriq. Matnni o'qing. Ona tilingizga tarjima qiling.
Tartib sonlar qatnashgan so'zlarni toping.

Bizning maktabimiz katta va chiroyli. Birinchi qavatda oshxona, sport zali, tibbiyot xonasi, xorijiy tillarni o'qitish xonalari, kutubxona va boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qiydigan xonalar bor. Ikkinchi qavatda ijod zali, o'qituvchilar xonasi, fizika, algebra, tarix, kimyo, o'zbek tili, informatika xonalari mavjud. Uchinchi qavatda rus tili va adabiyoti hamda chet til xonalari joylashgan. O'quvchilar maktabdagi jihozlarni asrab-avaylaydilar.

Bizga maktabimiz juda yoqadi.





2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz nechanchi sinfda o'qiydiz?
2. Sinfingizda nechta o'quvchi bor?
3. Sizning sinfingiz nechanchi qavatda joylashgan?
4. Ertaga necha soat dars bo'ladi?
5. O'qituvchilar xonasi nechanchi qavatda joylashgan?
6. Bugun o'zbek tili darsi nechanchi xonada bo'ladi?



1-mashq. Sonlarni raqamlar bilan ifodalab, matnni ko'chiring.

1. Akam o'ninchi sinfda o'qiydi. 2. Hozir yigirma birinchi asr. 3. Men birinchi partada o'tiraman. 4. Birinchi chorak boshlandi. 5. Men nazorat ishida ikkinchi variant topshiriqlarini yozaman. 6. Opam bu kitobning o'n beshinchi bobini o'qidi. 7. Bizning sinf xonamiz ikkinchi qavatda joylashgan.



3-topshiriq. Gaplarga mos savollar tuzing.

1. Bizning sinfimiz birinchi qavatda joylashgan.
2. O'zbek tili darsi 71-xonada bo'ladi.
3. Sinfimizda o'n ikki nafar qiz bola bor.
4. Jismoniy tarbiya darsi birinchi qavatda o'tiladi.
5. Bugun besh soat dars bo'ladi.



2-mashq. So'zlardan so'z birikmalari hosil qiling.

Namuna: mashq, daftar – mashq daftari.

o'zbek tili, xona – ...

sinf, ish – ...

deraza, oyna – ...

kitob, javon – ...

maktab, bog' – ...

dars, jadval – ...



4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

Maktabim

Ilyos Muslim

Ona kabi mehribon,
Ilm-fanlarga makon,
Yayrab o'qiyman har on,
Qadrdonim maktabim!

Senda darslar xilma-xil,
O'qib, o'samiz har yil,
Sevinchlarga to'lar dil,
Qadrdonim maktabim!

A'lo o'qishdir burchim,
Sarf etaman bor kuchim,
Ishlayman xalqim uchun,
Qadrdonim maktabim!



-inchi, -nchi qo'shimchali so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.
Lug'atdagi so'zlarni yodlang.

